

Ingliz Va O'zbek Tillarida So'z Brikmasiga Teng Fe'l Iboralar Tahlili

Gulova Lola Salimovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi ayrim fe'l iboralarning so'z brikmasiga teng muqobil va nomuqobil shakllarini qiyosiy asnoda o'rganish orqali ularning ma'no va shakl jihatidan o'xshash va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuning bilan birga, frazeologizmlar ma'nosini qayta obrazli, ekspressiv, volyuntativ va emotiv tarzda gavdalantirish xususiyatlari haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, so'z brikmasi, gap, muqobil fe'l iboralar, nomuqobil fe'l iboralar, kesm, ekvivalent, etimologiya.

Frazeologik birliklarning sintaktik shakl jihatidan ko'pchilik qismini birikmaga teng qurilishli fe'l iboralar tashkil etadi. Gapga teng qurilishlilari ham anchagina. Birikmaga teng, shuningdek, gapga teng qurilishli frazeologik birliklar, o'z navbatida xilma xil ko'rinishlarga ega.

Ayni bir frazeologik birlik ham birikmaga teng, ham gapga teng shaklda bo'la oladi. Bunday hodisa anchagina uchraydi va asosan frazeologik birlik tarkibidagi fe'l qismining nisbatini o'zgartirish bilan voqe bo'ladi. Masalan, *ko'nglini ko'tarmoq* – birikmaga teng qurilishli frazeologik birlik, *ko'ngli ko'tarildi* – shu frazeologik birlikning gapga teng qurilishli ko'rinishi; ammo ingliz tilida bunday hodisa uchramaydi chunki uning ma'nosi tubdan o'zgarib ketadi. *She took care of everything – great care was taken to keep children.*

Birikmaga teng qurilishli frazeologik birliklarning kichik bir qismi, erkin birikmalardan farqli holda so'z shakllardan tarkib topgan deb qaraladi. Chunki ular tarkibidagi hokim qism ayni shu shakldagina namoyon bo'ladi, grammatik shakli o'zgarmaydi.

Birikmaga teng qurilishli fe'l frazeologik birliklar kontekstda kesim bo'lib keladi va shu vazifasiga mos holda mayl, zamon va shaxs-son shakllarini oladi, lekin shu asosda bunday frazeologik birlikni gapga teng qurilishli deb qarab bo'lmaydi.

Chunki, bunday frazeologik birlik til birligi sifatida nutqqa kiritilmasdan avval kesimlik shakllariga ega bo'lmaydi. Masalan, *joniga tegmoq* frazeologik birligi birikmaga teng qurilishli bo'lib, kontekstdangina kesim kabi shakllanadi: *Jonimga tegdi bu xarxashalar, ketaman shaharga.* Xuddi shunday ingliz tilida ham *to let the cat out of the bag* frazeologik birligi ham shunday ahamiyat kasb etadi: *I've let the cat out of the bag already, Mr. Corthell, and I might as well tell the whole thing now.*

Ingliz va o'zbek tillari geneologik jihatdan bir man'badan kelib chiqmagan bo'lsada, ular orasidagi o'xshashlik va noo'xshashlik xususiyatlari ayniqsa ikkala til frazeologiyasida ham o'z aksini topgan. Shu nuqtai nazardan ingliz va o'zbek tillaridagi so'z brikmasiga teng fe'l iboralarni quyidagi ikki guruhga ajratib o'rganishni lozim topdik:

1. So'z brikmasiga teng muqobil fe'l iboralar
2. So'z brikmasiga teng nomuqobil fe'l iboralar

Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birlik muqobilligi haqida gapirganda, muqobillik tushunchasini o'rni bilan shakliy va mazmuniy ekvivalentlik, mutanosiblik ma'nosida qo'llashni lozim ko'rdik. Shu bilan bir qatorda, muqobillik atamasini qiyoslanayotgan tillardagi frazeologizmlarning oppozitsiyasi

¹ Osiyo Xalqaro Universitetining "Tarix va Filologiya" kafedrasini o'qituvchisi



nuqtai nazaridan ham talqin qilinishini ba'zi o'rinlarda ma'qul ko'rdik. Chunki fe'l iboralarning qiyosiy taqqoslashda iboralarda ishtirok etgan fe'l komponentlarning fonetik- leksik mushtarakligi bilan bir qatorda, semantik - funksional jihatdan qarama qarshilik holati ham faol uchraydi. Iboralarning qiyosiy asnoda o'xshash va o'ziga xos tomonlarini o'rganish ularni quyidagi turlarga ajratish imkonini beradi:

1. Mazmun va shakl jihatidan to'liq muqobil fe'l iboralar;
2. Ma'no tomonidan muqobil va tarkibiga ko'ra o'xshash komponentlarga ega bo'lgan qisman muqobil fe'l iboralar;
3. Shaklan umuman noo'xshash komponentlardan tashkil topgan, ammo ma'no jihatidan muqobil fe'l iboralar.

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l frazeologizmlarning muhim bir qismini mazmun va shakl jihatidan to'liq muqobil iboralar tashkil etadi. Mazkur iboralar ma'no va qurilish mosligi bilan cheklanib qolmay, ularning hadlari ham mos kelib morfologik qurilish jihatidan ham bir xil shakllangan bo'ladi. Bularga misol qiladigan bo'lsak: *to play with fire- o't bilan o'ynashmoq; to be in the seventh heaven – yettinchi osmonda bo'lmoq*. Boshqa misolni kuzatsak: *break smb's heart*, bu birlik o'zbek tilidagi "*Qalbi sinmoq, xafa bo'lmoq*" degan muqobil variantlarga egadir. Shuningdek, *head over heels in love – boshidan tovoniga qadar oshiq bo'lib qolmoq; to promise the moon- oyni va'da qilmoq* kabilar.

Yoki *to be two faced* birikmasi inglizchadan so'zma so'z *ikki yuzli bo'lmoq* deb tarjima qilinadi va o'zbek tilidagi *ikki yuzlamachi bo'lmoq* degan ekvivalentiga egadir. G'aybulli Salomovning ta'kidlashicha, "qardoshlik, territoriya yoki etnik jihatdan bir-biridan uzoq bo'lgan xalqlarning tillarida o'xshash ko'chma ma'noli birikmalarning uchrash sabablari bir qanchadir".

Shuning uchun ham turli xalqlar tillarida shaklan turlicha bo'lsada, obrazli asoslari o'xshash, mazmunan bir-biriga yaqin frazeologizmlar uchraydi.

2. Ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l frazeologizmlar orasida alohida bir guruhni ma'no tomonidan bir xil, had bir-biriga yaqin yoki o'xshash komponentli so'zlar bilan ifodalangan iboralar tashkil qiladi. Jumladan, ingliz tilidagi ibora o'zbek tilidagi muqobiliga ma'no jihatidan to'liq mos keladi, lekin undagi qaysidir so'z o'zbek tilida shunga yaqin bo'lgan boshqacharoq so'z bilan ifodalanadi. Shuningdek, frazeologik birikmalarning qisman mos kelishi uchun obrazlilik tomondan bir xil, lekin tuzilish va so'z tartibi jihatdan bir- biridan farq qiladi. Masalan: *to lose one's temper- sabri tugamoq; to agree like cats and dogs – it mushukdek yashamoq; to kill two birds with one stone – ikki quyovni bir o'q bilan urmoq; to lead smb by the nose – burnidan ip o'tkazib olmoq; to lose one's head- gangib qolmoq; Yoki to get out of bed on the wrong side- chap yoni bilan turmoq; to dance to smb's pipe – birovning nog'orasiga o'ynamoq; to give someone a hand – kimgadir yordam qo'lini cho'zmoq; To throw dust into smb's eyes-kimnidir ko'ziga xas tashlamoq; to play into somebody's hand- kimningdir nog'orasiga o'ynamoq.*

Yoki boshqa bir misolni kuzatsak, *shake your ears* - ingliz tilida *ears – quloq*, o'zbek tilida esa quloq o'rniga *tuyoq* so'zi ishlatiladi. Ya'ni *bor, tuyog'ingni shiqqillat* deb tarjima qilinadi. Ingliz tilidan so'zma so'z tarjima qilsak *bu - bor, quloqlaringni qimirlat* deb tarjima qilingan bo'lardi. Yoki yana bir boshqa misolga qarasa *to be on thin ice* turg'un so'z birikmasi har ikkila tilda ham *qiyin ahvolda, vaziyatda bo'lmoq* degan mazmunni beradi, lekin ingliz tilida qiyin vaziyat *thin ice – ya'ni nozik muz* so'zi bilan ifodalansa, o'zbek tilida esa *qil* so'zi bilan namoyon buladi. Ya'ni *qil ustida turmoq* degan variantga mos tushadi. Demak, o'zbek xalqlarida qiyin vaziyat nozik qilga qiyoslansa, ingliz xalqlarida esa nozik muz obrazida tasvirlanar ekan. Yuqorida keltirilgan fe'li iborada, so'zlar shaklan bir xil bo'lmasada bir biriga o'xshash va asosiy ko'chma ma'no saqlangan. Ular stilistik hamda pragmatik jihatlardan bir xil qiymatga, ma'noga, ifoda usuli va ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

3. Har ikki tilda shaklan noo'xshash komponentlardan tashkil topgan, ammo ma'no jihatidan muqobil variantlariga ega bo'lgan fe'l iboralar ham mavjud: Masalan: *to pull somebody's leg- mazax*



qilmoq; to beat about the bush- gapni aylantirmoq; to kick the bucket – vafot etmoq; to get out of hand – bebosh bo'lib ketmoq; To make hay while the sun shines- temirni qizig'iga bosmoq; to be fed up with – joniga tegmoq; Shuningdek: to be pins on needles – ushbu frazeologik birikma ko'proq biror voqeaning sodir bo'lishini kutib “toqati toq bo'lmoq”, “sabr kosasi to'lmoq” iboralari bilan ma'nodosh bo'ladi. To be out of your mind- boshi berk ko'chaga kirib qolmoq; not to care a fig- hammaga birdek bo'lmoq; look not a gift horse in the mouth – berganning betiga qarama, to lay by a rainy day – qora kunga saqlamoq/qoldirmoq; to throw mut at smb- kimgadir, tuhmat qilmoq; to put a spoke in smb's wheel-kimnidir oyog'idan chalmoq; to hold one's cards close to one's chest – sir saqlamoq, jim yurmoq;

Har bir xalqning til boyligi, jumladan frazeologik birikmalari uning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, turmush tarzi, mentaliteti va xarakterli xususiyatlari

bo'lib, tillardagi ma'lum bir guruh iboralarda o'z aksini topgan. Hamma uchun bir xil fikrlar turli xalqlar tomonidan turlicha ifodalanadi.

Ba'zan tarjima amaliyotida iboralarning o'zbek tilida na ekvivalenti, na analogi, na monandi bo'ladi. Bunday iboralar har bir tilning o'ziga xos xususiy frazeologizmlari bo'lib, qiyosiy planda o'zaro nomuqobil iboralardir. Ya'ni fe'l ibora va uning tarkibida berilgan ma'no butunlay o'zbek tili va madaniy hududi uchun yangilik bo'ladi. Bunday hollarda, ko'pincha, tarjimon iboralardagi ma'noni tushuntirish uchun erkin birikmalardan foydalanadi. Masalan, *grin like a Cheshire cat – boshqalar ustidan kulish, tahqirlash; send smb to Coventry – biror kishiga boykot e'lon qilmoq, kim bilandir muloqatni to'xtatmoq; be at smb.'s beck and call – har doim xizmatga tayyor turmoq; to rain cats and dogs – chelaklab yomg'ir qoymoq; to spill the beans – sirni aytib qo'ymoq; to have other fish to fry – muximroq ishlari bo'lmoq; To rob Peter to pay Paul- birovdan olib boshqani qarzini bermoq; To burn the candle on both ends- erta tongdan tungacha ishlamoq; Carry coals to Newcastle- Nyukastlga ko'mir tashimoq ya'ni biror narsani o' sha yerda yetarli bo'lgan joyiga olib bormoq* kabilar nomuqobil iboralarga misol bo'la oladi.

Shuningdek, ingliz tilida *dine with Duke Humphrey* turg'un iborasi mavjud. U “*tushliksiz qolish, tushlikdan, ya'ni tamaddi qilib olishdan mahrum bo'lish*” mazmunini anglatadi. Mazkur fe'l iboraning kelib chiqishida o'ziga xos tarixiy omillar rol o'ynagan. London cherkovlaridan biridan o' sha joydagi qashshoq va gadoylar tamaddi qilishga biror narsa berishlarini so'rashadi. Ammo ular “Yo'q” javobini oladi. Ya'ni yegulik so'rganlar och qoladi. Mana shu cherkovga gersog Hemfri ko'milgan bo'ladi. Shu bois gersog Hemfridan ovqat so'rash aslida ovqatsiz qolish mazmunini berganligi sababli idioma tarjimasi “*och qolish, tushliksiz qolish*” mazmunida qo'llanishga asos bo'lgan.

Shuningdek, “*cut off with a shilling*” iborasi “*merosiz qolish, merosdan mahrum bo'lish*” mazmunini anglatadi. Uning etimologiyasi zahirida ham o'ziga xos tarixiy-ijtimoiy holat va vaziyatlar mavjud. Ingliz yurisprudensiyasiga ko'ra agar ota o'z farzandini merosdan mahrum qilmoqchi bo'lsa-yu, masalan, o'z o'g'liga meros qoldirma, bunday odamning vafotidan so'ng o'g'il o'zining ota merosiga bo'lgan huquqini sud orqali tiklab olishi mumkin. Agar ota haqiqatan ham o'z o'g'lini merosdan mahrum qilmoqchi bo'lsa, u o'g'liga rasmiy “*bir shilling*” vasiyat qiladi. Ya'ni huquqiy jihatdan o'g'il meros olgan bo'ladi. Shundan so'ng o'g'il ota vafotidan so'ng katta merosga da'vogar bo'la olmaydi. Shunga ko'ra idiomaning tarjimasi “*merosdan mahrum bo'lish, merosiz qolish*” mazmunini anglatadi.

Xullas, ikkala tilda ham eng ko'p uchraydigan so'z birikmasiga teng fe'l iboralarni tahlil qilganda bu – ikki til hududi, ikki madaniyat va milliy tafakkur tarkibidagi semantik monandlik, semantik takroni topa bilish va uni ro'yobga chiqarish, ya'ni o'ziga xos lingvistik ifoda jarayonining o'zga tilda mazmun va shakl jihatidan muqobil va nomuqobillarini topish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, frazeologizmlar ma'nosini qayta obrazli, ekspressiv, volyuntativ va emotiv tarzda gavdalantirish xususiyatlarini kashf qildik.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova Shoira O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar Avtoref. Filol.fan.nom: T., 1998-8-7-betlar
2. Raxmatullayev Sh. Основные разновидности грамматического строения глагольных фразеологических единиц –Т., 1957. 87-bet.
3. Smirniskiy A. I. Синтаксис английского языка.– М.: ИИЛ, 1957-йил – 75-bet.
4. Usmonova Shoira O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar Avtoref. Filol.fan.nom: T., 1998-8-9-betlar
5. Dictionary of Idioms. London: Harper Collins Publisher, 2005. -P513.
6. Surat, F. N. . . (2024). DIALOGUE IN THE ANIMATED SERIES "KUNG FU PANDA. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(4), 202–205. Retrieved from <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/624>
7. Fayzullayeva, N. (2024). FEEL THE FREEDOM IN THE WORKS OF WALT WHITMAN. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(3), 330–335. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10814469>
8. Fayzullayeva, N. (2024). WALT WHITMAN WORD ABOUT "A CELEBRATION OF THE HUMAN SPIRIT IN POETRY". *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(3), 336–341. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10814566>
9. Fayzullayeva, N. (2024). WALT WHITMAN AND HIS POEM ABOUT AMERICA. *Modern Science and Research*, 3(1), 35–39. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28918>
10. Fayzullayeva, N. (2024). "AMERICAN DREAM" IN WALT WITHMAN'S POEMS. *Modern Science and Research*, 3(1), 220–224. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27940>
11. Fayzullayeva, N. S. qizi . (2023). Theoretical Views on the Use of the Term "Concept" in Cognitive Linguistics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(5), 27–31. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1685>
12. Sur'at qizi Fayzullayeva, N., & Kilicheva, M. R. (2022). UOLT UILTMAN NASRIDA "AMERIKA ORZUSI" KONSEPTI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(8), 574-576.
13. Fayzullayeva, N. (2023). THE IMPROVING OF LISTENING SKILL. *Modern Science and Research*, 2(10), 272–276. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25086>
14. Fayzullayeva, N. (2023). THE CONCEPT OF THE AMERICAN DREAM AND WALT WHITMAN. *Solution of social problems in management and economy*, 2(11), 137-142.
15. Fayzullayeva, N. (2023). THE ROLE OF THE AMERICAN DREAM IN UOLT WILTMAN'S POEMS. *Modern Science and Research*, 2(10), 714–718. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24676>
16. Fayzullayeva, N. (2023). USAGE OF THE FLORA IN THE EARLY MODERN ENGLISH POETRY. *Modern Science and Research*, 2(9), 36–39. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24078>

